

“Fanlar akademiyasi prezidenti davlat rahbarini aldagani midi?” nomli maqolaga MUNOSABAT!

“Zed News” (<https://t.me/zednewsuz>) Axborot kanalini yoritib boruvchi Zahiriddin ismli bloger tomonidan 2020-yil 28-may kuni “Youtube.com” saytida “Fanlar akademiyasi prezidenti davlat rahbarini aldagani midi?” nomli maqola video ko’rinishida taqdim etildi (https://www.youtube.com/watch?v=_27fhgbvTU).

Mazkur maqola asossiz tayyorlangan bo’lib, undagi ba’zi bir faktlar buzib, dalillarsiz ko’rsatilgan.

Misol uchun video rolikning birinchi daqiqasida quyidagi matn keltirilgan:

“2020-yil 31-yanvarda Shavkat Mirziyoyev olimlar bilan uchrashganda FA prezidenti hamma institutlar bazaviyga o’tkazilganini aytgan”.

Biroq video rolikning 1:25-daqiqasida Fanlar akademiyasi prezidenti Yuldashev Bexzod Sadikovich quyidagi fikrni bildirgan:

“Fanlar akademiyasi nomidan Shavkat Miromonovich churur minnatdorchiligimizni bildiramiz. Bizga byudjet finansirovaniye mablag’larini o’tkazganizga”.

Ko’rinib turibdiki, “Zed News” Axborot kanalini yoritib boruvchi bloger maqolasining nomida Fanlar akademiyasi prezidenti Davlat rahbarini aldashda ayblanib, unga tuhmat qilingan.

Bundan tashqari, 2020-yil 31-yanvarda Shavkat Mirziyoyev olimlar bilan o’tkazilgan uchrashuvda hurmatli blogerimiz ishtirok etmaganligi va, qolaversa, bu uchrashuvning video roligini to’liq ko’rmaganligi ma’lum. Chunki, mazkur uchrashuvda Davlat rahbari Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari byudjetdan moliyalashtirishga o’tkazilayotganini ma’lum qilganlar. Demak, mazkur jarayon davom etmoqda va albatta o’z nihoyasiga yetadi. Shuningdek, “2020-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi (2019-yil 9-dekabrdagi O’RQ-589-son) Qonunida Fanlar akademiyasi 2020-yil uchun O’zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larni oluvchisi sifatida ko’rsatilgan.

Yana maqolada quyidagi gaplar yozilgan:

“...kanalimizga yetib kelgan murojaatlarga ko’ra, ko’plab institut xodimlari aynan bazaviyga o’tkazilayotgani uchun yanvardan beri oylik ololmayotganini yozishgan. Bu yerda yo akademiya prezidenti yolg’on gapirgan, yoki moliyalashtirishga yarim yil vaqt sarflanadi”.

Ayni vaqtda, Fanlar akademiyasi ma’muriyati mas’uliyat bilan shuni ta’kidlab o’tadiki, 2020-yilning yanvar oyidan to hozirgi kunga qadar Fanlar akademiyasi tizimidagi barcha ilmiy-tadqiqot muassasalari to’liq moliyalashtirilgan va barcha xodimlar oylik ish haqlarini o’z vaqtida olganlar.

Mazkur holat yuzasidan hurmatli blogerga institut xodimlari tomonidan yuborilgan murojaatlarni taqdim etishini so’rab qolamiz.

Bloger tomonidan taqdim etilgan murojaatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilib, tekshiriladi. Agar blogerning maqolasida yozilgan ayblovlar o’z tasdig’ini topmasa, blogerga nisbatan huquqiy ta’sir chorasini ko’rishni so’rashga majbur bo’lamiz.

Fursatdan foydalanib, ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlarga e’tibor o’zgarganligini, mamlakatda so’z erkinligi qo’llab-quvvatlanayotganligini, sohaning chinakam “to’rtinchi hokimiyat” darajasiga ko’tarilishiga erishilayotganligini, OAVni rag’batlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligini ta’kidlash lozim. Ammo, ayni pallada, “Zed News” Axborot kanalini yoritib boruvchi Zahiriddin ismli blogerning e’tiborsizligi, holatni sinchkovlik bilan o’rganmasdan, shoshma-shosharlik bilan mansabdor shaxsni xalq oldida obro’sizlantirishi, kelajakda OAVga bo’lgan ishonchni so’ndirishi

mumkinligini eslatib o'tmoqchimiz.